

ANGREN MAXSUS INDUSTRIAL ZONASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN LOYIHALAR

Ortiqova Shahnoza Zokir qizi

Termiz Davlat Universiteti talabasi

Xasanov Anvar Zikriyo o'g'li

Termiz Davlat Universiteti talabasi

Qodirova Nigora Ulug'bek qizi

Termiz Davlat Universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6799410>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Angren maxsus industrial zonasining tashkil etilishi shaharda bu boradagi ishlar ko'lamini kengaytirish, sanoat va infratuzilmani yanada rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda zonada amalga oshirilayotgan loyihalarni o'rganish va mamlakatimiz taraqqiyotida tutgan o'rnini baholash vazifalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: maxsus industrial zona, kooperatsiya aloqalari, xorijiy investitsiya va kreditlar, kichik sanoat zonalar, transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi.

ПРОЕКТЫ, РЕАЛИЗУЕМЫЕ В ОСОБОЙ ПРОМЫШЛЕННОЙ ЗОНЕ АНГРЕН

Аннотация. В данной статье рассматриваются задачи по созданию особой индустриальной зоны Ангрэн, расширению масштабов работ в этом направлении, дальнейшему развитию промышленности и инфраструктуры, созданию новых рабочих мест, а также изучению реализуемых в зоне проектов и оценке их роли в развитии страны.

Ключевые слова: особая промышленная зона, кооперационные связи, иностранные инвестиции и кредиты, малые промышленные зоны, транспорт, производство и инженерно-коммуникационная инфраструктура.

PROJECTS IMPLEMENTED IN ANGREN SPECIAL INDUSTRIAL ZONE

Abstract. In this article, the tasks of the Angren special industrial zone are considered to expand the scope of work in the city, further development of industry and infrastructure, creation of new jobs, study of the projects implemented in the zone and evaluation of its position in the development of the country.

Keywords: special industrial zone, cooperative relations, foreign investment and loans, small industrial zones, transport, production and engineering-communication infrastructure.

KIRISH

Vatanimizning barqaror rivojlanishi yuqori darajadagi investitsiyaviy faollikka bog'liqdir. Unga esa ichki va tashqi investitsiya resurslarini jalb qilish hamda ulardan samarali foydalanish orqali erishiladi. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, chet el investitsiya va kreditlarini iqtisodiyotni rivojlantirishga yordamlashadi va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar uchun kuchli rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirib, bir qancha xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy banklar bilan o'zaro foydali aloqalar o'rnatish boshladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, kengaytirish uchun huquqiy asoslarini yaratib bergan asosiy qonun hujjatlari qabul qilindi.

Maqolaning asosiy vazifasi mamlakatimizda tashkil etilgan Angren maxsus iqtisodiy zona faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, hamda O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan amaliy taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Mamlakatimizdagi korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalari yanada rivojlanmoqda. Mahalliy xomashyo va materiallar negizida yuksak texnologiyali mahsulot ishlab chiqarish jarayoni chuqurlashayotir. Transport, muhandislikkommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma, Angren logistika markazi salohiyati, yuklarni avtomobil va konteynerlarda tashish borasida yaratilgan tizimni yanada rivojlantirish hamda ulardan keng ko'lamda foydalanish ta'minlanayotir, ko'plab yangi ish o'rinlari ochilmoqda.

Ichki va jahon bozorlarida raqobatbardosh bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni barpo etish va ularning samarali faoliyat yuritishi uchun investitsiyalar, eng avvalo to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etish borasida qulay shart-sharoitlarni shakllantirilishi kerak;

-maxsus industrial zonaga kiruvchi mintaqaning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash, mineral-xomashyo resurslarini yanada chuqurroq qayta ishlash bo'yicha yangi ishlab chiqarishlarni barpo etish;

-maxsus industrial zona va umuman respublika korxonalari o'rtasida mustahkam kooperatsion aloqalar o'rnatish hamda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish asosida mahalliy xomashyo va materiallar negizida yuksak texnologiyali mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;

-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hamda samarali foydalanish, "Angren" logistika markazi salohiyatini, yuklarni avtomobil va konteynerlarda tashish borasida yaratilgan tizimni yanada rivojlantirish hamda ulardan keng ko'lamda foydalanishni ta'minlash. Hujjatga ko'ra, ushbu zonani yaratishdan maqsad – yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlarni shakllantirish.

TADQIQOT NATIJALARI Shuningdek, maxsus industrial zonasi Toshkent viloyatining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish, shu asosda yangi ish joylarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. "Angren" maxsus industrial zonasi tarkibiga kiritilgan yer maydonlari Toshkent viloyati hokimligining bevosita tasarrufida. Bugungi kunda shaharda ikki yuzdan ortiq korxonalar va tashkilot faoliyat yuritmoqda. "O'zbekko'mir" va uning tarkibiga kiruvchi unitar korxonalar, Angren va Yangi Angren issiqlik elektr stansiyalari, "Sangren tex" qo'shma korxonasi, "Energoqozontozalash", "Angren kaolin" mas'uliyati cheklangan jamiyatlari, Angren logistika markazi shular jumlasidandir.

"Angren" maxsus industrial zonasining faoliyat yuritish muddati 30 yilni tashkil etadi va bu muddat keyinchalik uzaytirilishi mumkin. "Angren" MIZ faoliyat yuritadigan muddat mobaynida uning hududida maxsus soliq tartibi va bojxona imtiyozlari amal qiladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan imtiyozlar kiritilgan investitsiyalarning hajmiga qarab uch yildan yetti yilgacha muddatga beriladi, shu jumladan ekvivalenti 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha bo'lganda – uch yil muddatga, 3 million AQSh dollaridan ortib 10 million AQSh dollarigacha bo'lganda – besh yil muddatga, 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda – yetti yil muddatga.

Angrenga temir yo'l borgani va uning elektrlashtirilgani, vodiy viloyatlariga eltuvchi avtomobil yo'lining talab darajasiga keltirilgani, Angrenning poytaxtga yaqinligi va u yerdan

Toshkent shahriga kirmasdan Sirdaryo, Jizzax va boshqa viloyatlarga o'tish imkoniyati mavjudligi sarmoyadorlarning Angren maxsus industrial zonasiga bo'lgan qiziqishini tobora oshirmoqda.

MUXOKAMA

Hozir mazkur zonada qiymati 186,5 million dollarlik sakkizta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Xususan, shakar zavodi qurish, ishlatilgan avtomobil moylarini qayta ishlash, keramik plitalar tayyorlash, terini qayta ishlash va undan tayyor mahsulot ishlab chiqarish, har xil o'lchamdagi mis quvurlar, ko'mir briket va sanitar-keramikalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish choratadbirlari ko'rilmoqda. Ushbu yirik loyihalar "O'zbekneftgaz" milliy xolding va O'zqurilishmateriallari aksiyadorlik kompaniyalari, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, "O'zbekcharm-poyabzali" va Oziq-ovqat sanoati korxonalari uyushmalari hamkorligida Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Singapur, Avstriya, Hindiston hamda Bolgariyaning yetakchi kompaniyalari orasidan tanlab olingan investorlar ko'magida hayotga tatbiq etilayotir. Yurtimizning shakar ishlab chiqaruvchi ikkinchi korxonasi bo'lgan Angren zavodi yaydoq dalada bunyod etildi. Jahon tajribasiga ko'ra, bunday qurilishni yakunlashga kamida 3 yil ketadi. "Angren shakar" esa 20 oydan ortiqroq muddatda nafaqat tiklandi, balki uning hududi so'lim hamda go'zal oshyonga aylantirildi.

Mana shu ma'lumotning o'zi ham industrial zonada amalga oshirilayotgan ishlar naqadar ulkan va muhim ahamiyatga ega ekanidan dalolat beradi.

Hozirgi vaqtda mazkur hududda O'zkimyosanoat va O'zavtosanoat kompaniyalari, O'zfarmosanoat konserni, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi va boshqa mahalliy hamda xorijiy yirik kompaniya va firmalar ishtirok etishi ko'zda tutilayotgan umumiy qiymati 245 million dollarlik yana yigirma ikkita istiqbolli loyihani amalga oshirish masalalari ko'rib chiqilmoqda. O'zbekistonda ham mazkur sohada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda 14 ta maxsus iqtisodiy zona mavjud bo'lib, ulardan ayrimlarining faoliyati ancha jadallashgan. Xususan, "Navoiy", "Angren", "Jizzax", "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarida umumiy qiymati 486 million dollarga teng 62 loyiha amaliyotga tatbiq etilgan, qolaversa, 4 ming 600 dan ortiq ish o'rni yaratilgan.

XULOSA

Shuningdek, "Nukus-farm", "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm", "Bo'stonliq-farm", "Parkent-farm" singari farmatsevtika sohasiga ixtisoslashgan 7 yangi erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirish bo'yicha ham barcha chora-tadbirlar ko'rilyapti. Shu bilan birga, erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish, xorijdan yuqori texnologik uskunalarni xarid qilish uchun O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'i hisobidan 100 million \$ miqdorida chet el valyutasidagi kredit liniyasi ochilgan. Bundan tashqari, kichik sanoat zonalaridagi direksiyalar kredit olish va bank xizmatlaridan foydalanishda har bir zonaga birlashtirilgan tijorat banklari bilan hamkorlikda ish olib borayotganligi ham muammolarni bartaraf etishda ayni muddao bo'lmoqda. Bozor talablari va import nomenklaturasini o'rganish asosida tadbirkorlar uchun takliflar, istiqbolli loyihalar ro'yxati shakllantirilgan. Imtiyozlardan yana biri shuki, kichik sanoat zonasida ishlaydigan subyektlar 2 yil barcha soliqlardan ozod etilgan. Hozirgacha ushbu zonalarda umumiy qiymati 535 milliard so'mga teng 1021 loyiha amalga oshirilgan, 9 ming 600 dan ziyod ish o'rni yaratilgan. Loyihalar doirasida nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham xaridorgir bo'lgan yengil sanoat, kimyo, oziq-ovqat mahsulotlari, elektr texnikasi buyumlari, zamonaviy qurilish materiallari, mebel va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Agar kichik sanoat zonalarining sarmoyalarni jalb qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishdagi o'rnini tahlil qiladigan bo'lsak, ularda hamon tashabbuskorlik yetishmasligi, faoliyatni rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish darajasi sustligi ko'zga tashlanadi. Shuning uchun bu ishlarni jadallik bilan amalga oshirishimiz shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. O'zbekiston, 2016.
2. Soliev.A O'zbekiston geografiyasi. Universitet. T.: -2014.
3. Karimov F. O'zbekiston jahon hamjamiyati safida. // Jamiyat va boshqaruv, - T.: 2004. №1
4. Qurbonov Sh.B. Kichik hududlar ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi.
5. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyoti -T., 2013.- 226 b.
6. Rakhmatov A. F. Artikova Sh. Z. Development of Fishing Farms in River and River Areas of Surkhandarya Region Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 17 Oct 2021
7. Rakhmatov A. F. Ortikova Sh. Z. Surxondaryo viloyati bog'dorchiligining geografik ko'rinishi Journal of Geography and Natural Resources
8. Ortiqova Sh.Z. O'zbekistonda maxsus industrial zonalarini tashkil etish va ularning huquqiy asoslari FRANCE international scientific-online conference: Scientific Approach to the Modern Education System part 5 ,28th June 23-25-B
9. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – T.: Mumtoz so'z, 2010.- B.189-211
10. Abdunazarov.H.M Ortiqova.Sh.Z General Geographical Description Of Angor District Eurasian Journal of History , Geography and Economics VOLUME 3 December 2021